



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№4/2

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Умар Худайбердиев Камбағаллик даражаси ва уни қисқартириш йўллари	66
Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова Аҳолининг ўсиши, камбағаллик даражаси ва аҳоли камбағал қатламининг ўзгариш тенденциялари	69
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish yondashuvlari	74
Навруз Абдуллаевич Кудратов Пути эффективного развития услуг электронной коммерции (на примере Самаркандской области)	77
Dilrabo Shirinboyevna Mardonova Samarqand viloyatida mehmonxona xizmatlari integral samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash	80
Farhod Mahmudovich Tirkashyev Xizmatlar ko‘rsatish sohasida intellektual mulk obyektlarini boshqarish xususiyatlari	86
Lazizjon Sharifovich Kuldoshev Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlik salohiyatini baholashga ilmiy yondashuvlar	91
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Аҳмаджон Таниев Туризмнинг атроф-муҳитга таъсири ва барқарор ривожланиш стратегиялари	97
Umida Ziyadullayevna Raximova Turizm Infratuzilmasining hozirgi holati	105
Gulmira Rabbonovna Tursunova Turistik mahsulot iste’molchisini tasniflash	110
Bekzod Sherzodovich Sharipov Inklyuziv turizm destinatsiyalarini shakllantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslari	116
Ulug‘bek Egamberdiyevich Boynazarov Oilaviy mehmon uylari uchun mahalliy va xalqaro me‘yorlar xususiyatlari	121
Dilyor Zafarovich Hakimov O‘zbekistonda etnografik turizmni rivojlantirish samaradorligini oshirish yo‘llari	124
Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов Туризм индустриясини ривожлантиришда минтақавий назариялар ўрни ва роли	130
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilishning innovatsion yechimlari	135
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Азизбек Исомиддин ўғли Асроров Кичик бизнес субъектларини кредитлаш тизимини такомиллаштириш масалалари	139
Pyos Pخomovich Ayubov, Sumbula Kurasheva Iqtisodiy islohotlarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni	145

<p>З.Абдулхакимов</p> <p>Место и роль региональных теорий в развитии туристической индустрии</p> <p>Аннотация. В данной статье показано влияние региональных теорий, служащих развитию индустрии туризма, направления развития индустрии туризма каждого региона путем выделения видов туристических социальных форм. Разработаны научные предложения и рекомендации по путям ускоренного развития деятельности туристических объектов в регионах, их перспективные направления.</p> <p>Ключевые слова: мировой рынок туризма, туристическая индустрия, региональные концепции туризма, туристические объекты, туристические центры, туристические социальные формы, интеграция, специализация, сотрудничество, комбинирование, движущие силы туризма, туристические возможности, туристические услуги, глобальное пространство.</p>	<p>Z.Abdulkhakimov</p> <p>The place and role of regional theories in the development of the tourism industry</p> <p>Abstract: This article shows the influence of regional theories serving the development of the tourism industry, the direction of development of the tourism industry of each region by identifying types of tourist social forms. Scientific proposals and recommendations on ways of accelerated development of the activities of tourist facilities in the regions, their promising directions are developed..</p> <p>Key words: Keywords: world tourism market, tourism industry, regional tourism concepts, tourist objects, tourist centers, tourist social forms, incorporation, specialization, cooperation, combination, tourist drivers, tourist opportunities, tourist services, global space.</p>
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

MEHMONXONA XO‘JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

<p>Annotatsiya. Mazkur maqola, mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilishning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan. Mehmonxonalarda energiya samaradorligini oshirish, suv resurslaridan tejamli foydalanish, chiqindilarni kamaytirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar kiritish, ekologik toza mahsulotlar va xizmatlar orqali mehmonxona mijozlari ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada yashil texnologiyalarning nafaqat atrof-muhitga, balki iqtisodiy samaradorlikka ham ta’siri o‘rganilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: ekologiya, mehmonxona, yashil texnologiyalar, innovatsion yechimlar, energiya samaradorligi, suvdan tejamli foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik mas’uliyat, barqaror turizm.</p>

Kirish. O‘zbekistonda bu masala ayniqsa dolzarb, chunki mamlakatda turizm sohasi faol rivojlanmoqda va mehmonxonalarining ekologik mas’uliyatini oshirish milliy rivojlanish strategiyalariga mos keladi. O‘zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "Yashil iqtisodiyot" kontseptsiyasi barqaror turizmni rivojlantirish va yashil texnologiyalarni keng joriy qilish orqali iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan. Shu sababli, mehmonxona sohasida energiya samaradorligini oshirish, suvni tejash va chiqindilarni kamaytirish mamlakat uchun katta ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ekologik barqarorlik masalalari jiddiy e’tiborni jalb qilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va atrof-muhitning ifloslanishi kabi global muammolar zamonaviy sanoat tarmoqlarini ekologik mas’uliyatli bo‘lishga majbur qilmoqda. Shu jumladan, mehmonxona xo‘jaligi ham atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, yashil texnologiyalarni joriy qilish zarurati bilan duch kelmoqda. Mehmonxona sohasi katta miqdordagi energiya va suv iste’mol qiladi, shuningdek, chiqindi hosil qiladi, bu esa tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xorijda esa ko‘plab davlatlar, ayniqsa Yevropa va AQSh, mehmonxona biznesida yashil texnologiyalarni joriy qilishda sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mehmonxonalar uchun "yashil sertifikatlar" tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu ekologik standartlarga mos faoliyat yurituvchi mehmonxonalarini rag‘batlantirishga qaratilgan. Bu amaliyot nafaqat mehmonxona biznesining raqobatbardoshligini oshiradi, balki mijozlarning

ekologik xabardorligini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Umuman olganda, yashil texnologiyalarni mehmonxona xo‘jaligiga joriy qilish bugungi kunda nafaqat ekologik talab, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali yechim hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar energiya va resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va ekologik mas’uliyatni oshirish orqali mehmonxonalar faoliyatini optimallashtirishga imkon beradi. Shu sababli, O‘zbekiston va xalqaro darajada barqaror turizmni rivojlantirishda innovatsion yashil yechimlar muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotchilar B. N. Porfiriyev, M. V. Sigova, I. K. Klyuchnikov, A. M. Malininlar o‘z e‘tiborini “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirishning strategik, institutsional va investitsiya yo‘nalishlariga va “yashil” investitsiyalarni iqtisodiy rivojlanishga kiritish xususiyatlariga, ekologik va an’anaviy iqtisodiyot o‘rtasidagi munosabatlarning eng muhim jihatlari qaratadi. Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qaroriga asosan tasdiqlangan “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” ham, bu mavzuda yurtimizda amaliy va nazariy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun ham asosiy manbalardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha innovatsion yechimlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tadqiqotda sifatli va miqdoriy usullar uyg‘unlashtirildi. Maqsadli yondashuv sifatida yashil texnologiyalarni qo‘llayotgan mehmonxonalar tajribasi o‘rganilib, ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqotimiz doirasida ilgari surilgan yashil iqtisodiyot tamoyillari quyidagilardan iborat:

1.	Energiya samaradorligini oshirish	Energiya resurslaridan samarali foydalanish, energiya yo‘qotishlarini kamaytirish va yangi energiya manbalarini joriy etish. Masalan, quyosh energiyasi va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirish.
2.	Suv resurslarini boshqarish	O‘zbekistonning iqlimiy sharoitlari suv resurslarini tejashni taqozo qiladi. Suvni tejash bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va irrigatsiya tizimlarini yaxshilashga qaratilgan loyihalar qo‘llab quvvatlash.
3.	Chiqindilarni kamaytirish	Mehmonxona va turizm sohasida chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar amalga oshirish.
4.	Ekologik toza mahsulotlar	Barqaror va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya dasturlarini qo‘llab-quvvatlash va bu mahsulotlar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro savdoda ham raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

O‘zbekiston hukumati ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni birlashtirish maqsadida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e‘tibor bermoqda. Yashil iqtisodiyot mamlakatning rivojlanish strategiyalaridan biri sifatida, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va texnologik sohalarda yangiliklarni joriy etishga qaratilgan. Bu yo‘nalish mamlakatda nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qaroriga asosan **“2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”** tasdiqlandi. Strategiyani amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, “yashil” energiyadan foydalanishni ta‘minlashga, “yashil” ish o‘rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi. Ushbu strategiyaning keltirilgan rejalar, xizmat

ko‘rsatish sohasining ham kelajagini belgilab bermoqda.¹

Dunyoda ekoturizmga bo‘lgan talabning yaqqol ortib borayotganiga qaramay, hozircha “eko-mehmonxona” atamasi haqida yagona va to‘liq tushuncha mavjud emas. Eko-mehmonxona – bu turar joy obyekti bo‘lib, uning asosiy xususiyati atrof-muhitga salbiy ta‘sirni minimal-lashtirishga qaratilgan maxsus choralarni joriy qilishdan iborat: ular suvni tejash, chiqindilarni saralash, ekologik toza tozalash vositalaridan foydalanish, kiyimlarni yuvish va nonushta uchun organik mahsulotlarni taklif qilish. Eko-mehmonxona yoki uni “yashil mehmonxona” deb ham atashadi, yashil yashash tamoyillariga mos keladigan ekologik barqaror obyektidir.²

Ba‘zi mamlakatlarda so‘nggi o‘n yillikda mehmonxonalarini ekologiyalashtirish, mehmonxonalarda “yashil” texnologiyalardan foydalanish ularning faoliyatida asosiy konsepsiyaga aylanib ulgurdi. Mehmonxona biznesidagi innovatsiyalarning zamonaviy yo‘nalishi sifatida eko-mehmonxonalar yaratildi.

Bugungi kunda eko-mehmonxonalarini joriy qilish va rivojlantirish mehmonxona sanoati faoliyatidagi yangi tendensiyasi hisoblanadi. Ekologik toza mehmonxona korxonalarining joriy etilishi ularning turistik jozibadorligini oshirishga yordam beradi va jahon turizm bozorida raqobatdosh ustunliklarni ta‘minlashga xizmat qila boshladi. Masalan, dunyoga mashhur Hilton mehmonxonasi 2030-yilgacha uglerod chiqindilari va suv iste‘molini kamaytirish, plastik idishlardan foydalanishni to‘xtatish hisobiga atrof-muhitga ta‘sirini ikki baravar kamaytirishni rejalashtirmoqda. Marriott mehmonxonasi esa suv iste‘molini 15 foizga, uglerod iste‘molini 30 foizga, umumiy chiqindilarni 45 foizga va oziq-ovqat chiqindilarini 50 foizga kamaytirishni rejalashtirmoqda.³

Bugungi kunda bir nechta eko-mehmonxonalar u yoki bu tarzda farqlanadi. Berghotel Muottas Muragl – iste‘mol qilganidan ko‘ra ko‘proq energiya ishlab chiqaradigan yuqori balandlikdagi mehmonxona. Berghotel Muottas Muragl dunyo mehmonxona sanoatidagi Yevropa hududida joylashgan eng qimmat “yashil mehmonxona” hisoblanadi. Mehmonxona binosi so‘nggi yillarda ikki baravar kattalashgan, ammo ko‘p quyosh panellari, geotermal isitgichlar va ekologik toza materiallar energiya sarfini 64%ga kamaytirishga yordam bergan.

Yashil mehmonxonaning standart amaliyotiga quyidagilar kiradi:

- barqaror yoki qayta ishlangan materiallardan foydalangan holda yangi mulkni loyihalash;

- aqlli termostatlar va aqlli yoritishni o‘rnatish;
- toksik bo‘lmagan maishiy mahsulotlardan foydalanish;
- qog‘ozsiz ishlash (masalan, elektron hisob-kitob);
- organik choyshablar, sochiqlar va matraslarni sotib olish;
- shamol va quyosh panellari kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya

kiritish;

- mehmonxona chiqindilarini kamaytirish;
- kamroq iste‘mol qilishni rag‘batlantirish (ya‘ni, sochiqni qayta ishlatish yoki suv idishlarini to‘ldirish).⁴

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijasida, mehmonxona sohasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni taklif qilamiz:

- Mehmonxonalar uchun “yashil” texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha investitsiyalar hajmini oshirish maqsadga muvofiq;
- “Yashil” texnologiyalarni joriy etish bosqichi samarali amalga oshishi uchun, xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish zarur deb hisoblaymiz;
- Mehmonxonalarining “yashil” texnologiyalar va resurslardan foydalanishini baholovchi sertifikatlashtirish va rag‘batlantirish tizimini joriy qilish lozim;

¹ <https://lex.uz/docs/-4539502>

² Мілінчук О. В. Переваги екологічної сертифікації готелів в Україні / О. В. Мілінчук. // Мене-джмент в інноваційному розвитку економіки: про-блеми та перспективи. – 2014. – 322–323-бетлар.

³ Хакимова Н.А. Mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilish -2023.

⁴ Абрамова Д. Д., Сурикова Н. А. Экологические инновации в средствах размещения // Экологические аспекты современных городов. Сборник материалов VIII межрегионального семинара. Иваново, 2022. 62-68-бетлар.

- Xalqaro hamkorlik va xorij tajribasini o‘rganish soha rivoji uchun asosiy qadamlardan bo‘ladi.
Yuqoridagi takliflar, mehmonxona sohasida “yashil” texnologiyalarni joriy etish yo‘lida foydali harakatlar bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori
2. Global Sustainable Tourism Council (GSTC). (2018). "GSTC Criteria for Hotels and Tour Operators." GSTC Publication.
3. Zhao, X., & Xu, X. (2020). "Challenges and opportunities for green hotel development: A literature review." *Tourism Management Perspectives*, 35, 100736.
4. Rico, T., & Ponce, M. (2017). "Assessment of green technologies in the hospitality sector." *International Journal of Hospitality Management*, 61, 119-130.
5. World Tourism Organization (UNWTO). (2020). "Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030." UNWTO Report.
6. Киреева Ю.А. Современные тенденции развития сферы гостеприимства / Ю.А. Киреева // Актуальные проблемы развития индустрии гостеприимства : сборник научных статей по итогам XVII международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы развития индустрии гостеприимства» и Круглого стола «Экономика туризма и индустрии гостеприимства: точки роста, цифровая трансформация, кадры» рамках I Всероссийского профессорского экономического форума, Санкт-Петербург, 01 июня 2021 года. Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2022. – 54-62-бетлар. – EDN XRVMVX.
7. Hawkins, T. R., & Sangwon, S. (2012). "The role of green technology in the hotel industry." *Journal of Sustainable Tourism*, 20(2), 155-178.
8. Bohdanowicz, P. (2005). "European hoteliers' environmental attitudes: A factor analysis approach." *Journal of Hospitality & Tourism Research*, 29(3), 387-410.
9. Kats, G. (2003). "Greening our built environment: A study of green technology and its potential." *The Journal of Environmental Management*, 67(4), 425-442.

<p>А.Мир-Джафарова Инновационные решения по внедрению зеленых технологий в гостиничном хозяйстве Аннотация. Данная статья посвящена инновационным решениям по внедрению зелёных технологий в гостиничное хозяйство. Рассматриваются технологии, направленные на повышение энергоэффективности, рациональное использование водных ресурсов и сокращение отходов в гостиницах. Также исследуются возможности удовлетворения потребностей клиентов гостиниц с помощью экологически чистых продуктов и услуг. В статье изучено влияние зелёных технологий не только на окружающую среду, но и на экономическую эффективность. Ключевые слова: экология, гостиница, зелёные технологии, инновационные решения, энергоэффективность, рациональное использование воды, сокращение отходов, экологическая ответственность, устойчивый туризм.</p>	<p>A.Mir-Djafarova Innovative solutions for implementing green technologies in the hotel industry Abstract. This article is dedicated to innovative solutions for implementing green technologies in the hotel industry. It analyzes technologies aimed at increasing energy efficiency, efficient water resource usage, and waste reduction in hotels. The potential for meeting hotel customers' needs through eco-friendly products and services is also explored. The article examines the impact of green technologies not only on the environment but also on economic efficiency. Keywords: ecology, hotel, green technologies, innovative solutions, energy efficiency, water resource management, waste reduction, environmental responsibility, sustainable tourism.</p>
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.